Мировой опыт использования денежных и натуральных трансфертов в социальном обеспечении.....	1052
<b>Гулноза Тохировна Самиева</b>	
Davlat xaridlarini amalga oshirish orqali raqobatni rivojlantirish yo'llari.....	1057
<b>Majidov Nizomjon</b>	
Raqamli iqtisodiyot davrida kontent marketingdan foydalanish va uning bosqichlari.....	1064
<b>Tohirjonov Ahmadjon Tohirjon o'g'li, Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna</b>	
Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini shakllantirish manbalari va usullarini takomillashtirish.....	1070
<b>Norqulov Mirsaid Tulqin o'g'li</b>	
Qishloq xo'jaligi sohasida investitsion jozibadorlikni oshirish zaruriyati.....	1075
<b>Badalov Jamshid Jamolovich</b>	
Foyda solig'i tushumi va uning O'zbekiston soliq-budjet tizimidagi ahamiyati.....	1080
<b>Shirinov Sabir Erkinovich</b>	
O'zbekistonda davlat korxonalari aksiyalarini moliya bozorlarida sotishni jadallashtirish yo'nalishlari.....	1084
<b>Anvar Eshmatov</b>	
Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlarini.....	1088
<b>Ametova Nasiba Danilovna</b>	
Tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish.....	1092
<b>Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna</b>	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
<b>Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li</b>	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
<b>Raxmonova Aziza Tolibovna</b>	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan.....	1106
<b>Umarov Elshod G'ulom o'g'li</b>	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
<b>Yuldashov Elmurod Abdujalil o'g'li</b>	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....	1116
<b>Икромовна Ханифа Одилловна</b>	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
<b>Kamalova Jamila</b>	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
<b>Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li</b>	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
<b>Ne'matov Oybek Ismatullayevich</b>	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
<b>Туйчиев Комилжон Лазизович</b>	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
<b>O'ktamova Nozima Narzulla qizi</b>	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
<b>Umarov Abdulquddus Abdilxatovich</b>	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
<b>Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович</b>	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
<b>Усманова Дилфузахон Иброхимовна</b>	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
<b>Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li</b>	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) .....	1168
<b>Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich</b>	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari .....	1174
<b>Qilichev Umid Ibadullayevich</b>	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari .....	1181
<b>Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....	1185
<b>Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li</b>	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	1191
<b>Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Islom iqtisodiyotining mohiyati .....	1197
<b>Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi .....	1201
<b>G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li</b>	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari .....	1207
<b>Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li</b>	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....	1212
<b>Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы</b>	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....	1218
<b>Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna</b>	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili .....	1222
<b>Nematov Inatillo Ubaydullayevich</b>	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish .....	1228
<b>Umurzakova Adiba Ochilovna</b>	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari .....	1232
<b>Raxmanov Ilxom Xurramovich</b>	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....	1238
<b>Пулатова Сурайё Юлдашевна</b>	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....	1242
<b>Рафиева Зарина Хусановна</b>	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....	1246
<b>Akhmedov Doniyorbek</b>	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....	1250
<b>Azizova Manzura Ibragimovna</b>	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production .....	1254
<b>Dilfuza Baxramovna Safarova</b>	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari .....	1261
<b>Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich</b>	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari .....	1266
<b>Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna</b>	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati .....	1272
<b>Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li</b>	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....	1277
<b>Ibragimov Gafurjan Axmetovich</b>	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi .....	1282
<b>Ibragimov Mansur Axmedovich</b>	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida) .....	1286
<b>Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich</b>	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами .....	1294
<b>Мансурова Севара Мансуровна</b>	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....	1297
<b>Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna</b>	



## TIJORAT BANKLARIDA YANGI MASOFAVIY BANK XIZMAT TURLARINI RIVOJLANTIRISH

**Umarov Abdulquddus Abdilxatovich**

“Hamkorbank” ATB Andijon viloyati bosh boshkarmasi boshlig'i

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining yangi bank xizmat turlari jumladan, masofaviy xizmat turlarining oson va qulay shakli “Digital banking” raqamli banking tizimi taklif qilingan. “Digital banking” xizmat turlarining afzalliklarimijozlari uchun o'z hisob-kitoblarini kunu tun amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishi hamda bank muassasasiga borib kelishlaridagi ortiqcha vaqt va xarajatlarni tejash imkoniyatlari keltirib o'tilgan va ularni takomillashtirish yuzasidan amaliy taklif va tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** masofaviy bank xizmat turlari, raqamli bank, digital bank, hisob raqam, bank xizmatlari, masofaviy xizmat, bank daromadi, bank xarajati.

**Abstract:** This article proposes new types of banking services of commercial banks of the Republic of Uzbekistan, including a simple and convenient form of remote service, the digital banking system “Digital Banking”. The advantages of the Digital Banking service are noted, allowing clients to make their payments around the clock, as well as the opportunity to save extra time and costs when visiting a banking institution, and practical suggestions and recommendations for their use are given. their improvement.

**Key words:** types of remote banking services, digital bank, digital bank, account number, banking services, remote service, banking income, banking expenses.

**Аннотация:** В данной статье предложены новые виды банковских услуг коммерческих банков Республики Узбекистан, в том числе простая и удобная форма дистанционного обслуживания, цифровая банковская система “Цифровой банкинг”. Отмечены преимущества услуги “Цифровой банкинг”, позволяющие клиентам осуществлять свои расчеты круглосуточно, а также возможность экономии лишнего времени и затрат при посещении банковского учреждения, а также даны практические предложения и рекомендации по их использованию. их улучшение.

**Ключевые слова:** виды дистанционного банковского обслуживания, цифровой банк, цифровой банк, номер счета, банковские услуги, удаленное обслуживание, банковские доходы, банковские расходы.

### KIRISH

Axborot asri, deya talqin qilingan XXI asrda axborot oqimining shiddat bilan oshishi, internet va axborot texnologiyalarning geometrik progressiyada rivojlanishi – turli xizmatlar va texnologiyalar raqamlashtirish va o'zaro aloqalarni “online” rejimida tashkil etishning obyektiv zarurligi, bugungi kunning muqarrar jarayoni ekanligini ko'rsatib beradi <sup>[1]</sup>. Aynan shu bois banklar axborot texnologiyalarining rivojlanish evolyutsiyasi bilan birga harakat qilmog'i lozim. Xususan, iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonida, birinchilardan bo'lib mamlakat iqtisodiyotining asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lgan bank tizimini raqamlashtirish, ularni zamon talabiga mos ravishda transformatsiya qilish jarayonlarining tezlashishiga olib keldi.

Mamlakatda oxirgi yillarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, tijorat banklari xizmat turlarining yangi mexanizmlarini joriy etish yuzasidan katta ishlar olib borilmoqda. Xususan, Prezidentning “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi (Farmon, 2018) <sup>[2]</sup>, “O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi (Qaror, 2018) <sup>[3]</sup>, “2020-yil – Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyot yili” deb e'lon qilinganligi hamda 2030-yilga qadar “Raqamli O'zbekiston” konsepsiyasini ishlab chiqish belgilanganligi (Mirziyoyev, 2019) bu borada bank tizimi oldiga qator vazifalarni bajarishni keltirib chiqaradi <sup>[4, 5]</sup>.

Yuqoridagi konseptual g'oyalardan kelib chiqqan holda, mazkur maqola mavzusining dolzarb ekanligini asoslash mumkin.





## ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston bank tizimida so'nggi yillarda bank xizmatlarining sifati va ko'lamini oshirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirildi. Lekin jahonda bo'layotgan o'zgarishlar, globallashtirish jarayoni, raqobatbardoshlikni haddan ziyod rivojlanishi, tijorat banklarining transformatsiya jarayonini yanada faollashtirish, mijozlarga ko'rsatilayotgan bank xizmatlarini yangi bosqichga olib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Bu borada Prezident Sh. M. Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomada, "Yana bir jiddiy kamchilik shuki, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hisobidan xodimlar soni va ish jarayonlarini optimallashtirish choralari ko'rilmayotganligidir", deb ta'kidlab o'tdi [6].

Tijorat banklarida raqamli transformatsiyaga bir qator iqtisodchi olimlar o'z ta'riflarini berganlar. Jumladan, xorijlik iqtisodchilar T. Ablyazov, V. Asaulning [7] fikricha, raqamli transformatsiya jarayoni mavjud biznes modelarini takomillashtirish, shuningdek, ish samaradorligini oshirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishni anglatadi. Ushbu jarayon innovatsion texnologiyalarni doimiy ravishda joriy qilishni o'z ichiga oladi, bu butun iqtisodiyotni to'liq raqamli o'zgartirishga olib keladi.

Rossiyalik iqtisodchi olim Vadim Arkadevich Kozhev [8], moliyaviy sektorni rivojlantirish nuqtayi nazaridan raqamli transformatsiya yangi ish muhitini shakllantiruvchi biznesni yuritishning amaliy usullarini takomillashtirish sifatida o'rganiladi deb hisoblaydi.

Taniqli O'zbekistonlik iqtisodchi olim, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati, iqtisod fanlari doktori, professor. N. X. Jumayev "Raqamli iqtisodiyotda IT yordamida tannarxni kamaytirishga, natijada optimallashtirish va samaradorlik oshirishga erishiladi. Raqamli iqtisodiyotda zamonaviy ilmiy yondashuvlar va innovatsiyalar muhim hamda ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi. Bunda ilmiy sig'imkorlik yuqori bo'lgan tarmoqlar ravnaq topishini ta'kidlaydi [9]."

Biz yuqorida keltirilgan fikrlarga qo'shilgan xolda bank sohasida raqamli "Digital banking" raqamli banking xizmat turlarini rivojlantirish mijozlar ehtiyojlarini sinchkovlik bilan o'rganish va mavjud imkoniyatlarni tahlil qilish orqali, mijozga yo'naltirilgan yangi innovatsion strategiyani ishlab chiqish orqali amalga oshirilishi kerak deb hisoblaymiz. Ammo banklarning faoliyatlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish usullari, avtomatlashtirilgan axborot tizimlari asosida modellashtirish tamoyillari, banklar faoliyatida avtomatlashtirilgan axborot tizimlaridan foydalanish samaradorliklari va tijorat banklari xizmat turlarini "Digital banking" raqamli banking regulyator tizimi orqali rivojlantirish kabi muhim jihatlari chuqur ilmiy-nazariy o'rganilmagan. Bu esa mazkur maqolaning dolzarbligini yanada oshiradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari xizmat turlari tahlil qilinib, masofaviy bank xizmat turlari jumladan, "Digital banking" raqamli banking regulyator tizimi ijobiy tomonlari va ularga ta'sir etuvchi omillar aniqlangan. Tahlil jarayonida ilmiy abstraksiyalash, ekspert baholash, induksiya va deduksiya, taqqoslash, tizimli tahlil usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI


Bugungi kunda talab oshib borayotgan ommabop bank xizmatlaridan masofadan turib foydalanishning oson va qulay yechimi bu "Digital banking" raqamli banking regulyator tizimi xizmatlari hisoblanadi. Bu xizmat turlaridan, nafaqat, jismoniy shaxslar uchun balki tadbirkorlik subyektlari o'z hisob-kitoblarini kunu-tun amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishadi hamda bank muassasasiga borib kelishlaridagi ortiqcha vaqt va xarajatlarni tejash imkonini ham berishi bilan alohida e'tiborga molikdir.

Hozirgi vaqtda, masofadan xizmat ko'rsatish tizimi mijozlarga taqdim etilayotgan xizmatlarning ikki turga bo'lib o'rganish mumkin ular:

- plastik karta orqali;
- tijorat banklari orqali.

Biz uchinchi xizmat turini taklif qilamiz, ushbu xizmat turi:

jismoniy shaxslar, hamda tadbirkorlik subyektlari uchun barcha to'lov va xizmatlarni o'z ichiga olgan, tunu-kun (24/7) onlayn xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan ekotizimdir. Ushbu tizimning afzalliklari xo'jalik yurituvchi subyektlar (yuridik mijozlar)ning 24/7 onlayn xizmat ko'rsatishdan iborat. Bugungi kunda mamlakatimiz bank xizmat turlarida faqatgina kunning ochiq qismida ya'ni, ish kunining soat 9:00 dan ish kunning tugash qismi soat 16:00 ga qadar xizmat ko'rsatiladi. Bizning taklif qilayotgan xizmat turimiz kunning istalgan vaqtida va dam olish kunisiz xizmat ko'rsatishdir.



1-rasm: “Digital bank” raqamli banking regulyator tizimini ishlash tartibi

Manba: Muallif tomonidan shakllantirildi.

“Digital bank” raqamli banking tizimini ishlash tartibi yuqorida keltirib o‘tilgandek, tadbirklik subyektlari o‘zlarining hisob raqamlarini ESR kalitlari orqali, internet tarmog‘i mavjud bo‘lgan dunyoning istalgan joyidan va istalgan vaqtlarida foydalanishlari bilan bir qatorda, ushbu tizimda soliq organlari va “my.gov.uz” dan hamma kerakli ma’lumotlarni olinadi va tizimga saqlab qo‘yish imkoniyati mavjud. Tizim Oferta bilan tanishib chiqadi va tasdiqlaydi (1-rasm).

Ekotizimning afzalliklariga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, ular tadbirkorlik subyektlari o‘zlarining hisob-raqamlarini ESR (soliq organlari tomonidan berilgan elektron kalit) kalitlari orqali internet tarmog‘i mavjud bo‘lgan dunyoning istalgan joyidan va istalgan vaqtlarida foydalanishlari mumkin. Tizim maxsus kross-platform “Javascript” dasturi orqali ishlab chiqilgan bo‘lib, u barcha brauzerlar, jumladan: Internet Explorer, Edge, Chrome, Mozilla, Opera, Safari orqali foydalanish imkoniyatiga ega, qo‘shimcha dasturlarni, xususan, e-imzo, ActiveX va boshqa programmalarni o‘rnatish talab etilmaydi.

Mamlakatimizda mavjud masofaviy bank xizmatlari bugungi kun zamonaviy bank xizmatlari talablariga to‘liq javob bera olmaydi. Bugungi davlat siyosati ham raqamli bank tizimini joriy etish va uni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar keng olib borilmoqda. O‘zbekiston tijorat banklarida joriy qilinishi taklif qilanayotgan “Digital bank” raqamli banking regulyator tizimi orqali, tadbirkorlik subyektlariga 20 dan ortiq onlayn bank xizmat turlarini dunyoning istalgan joyidan turib, 24/7 tizimi orqali istalgan vaqtlari foydalanishlari mumkin bo‘ladi (1-jadval).

1-jadval: “Digital bank” raqamli banking regulyator tizimi orqali ko‘rsatiladigan xizmatlar

№	Amalga oshiriladigan funksiyalar
1	Tijorat banklar bilan integratsiyani amalga oshirish (NCI bilan integratsiya)
2	Bank o‘tkazmalarini qabul qilish va jo‘natish
3	Davlat boji va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash
4	Budjet to‘lovlarni to‘lash
5	Tizim orqali tijorat banklarida asosiy va ikkilamchi hisob-raqamlarini ochish
6	Onlayn konvertatsiya
7	Onlayn depozit – Onlayn depozitlarga mablag‘larni joylashtirish
8	Ko‘chmas mulklarni onlayn baholash
9	Onlayn kredit – arizalarni qabul qilish va onlayn tarzda kreditlarni to‘lash
10	Onlayn – sug‘urta polislarini ro‘yxatdan o‘tkazish
11	Tadbirkorlik subyekt shaxsiy kabinetlariga istalgan joyda va istalgan vaqtda soliq organlari tomonidan berilgan ESP (kalit) orqali kirish
12	Tadbirkorlik subyektlari uchun soliq va bojxona xizmatlaridan foydalanish



13	Tadbirkorlik subyektlari uchun ochiq zamonaviy elektron savdo platformalaridan foydalanish va to'lovlarni amalga oshirish
14	SWIFT tranzaksiyalari bilan ishlash
15	Market Place auksionlarida ishtirok etish
16	Korporativ bank plastik kartalariga buyurmalar berish
17	Elektron hisob-faktura operatsiyalarni amalga oshirish
18	Soliq organlari hisobotlarini onlayn topshirish
19	Bojxona xizmatlaridan onlayn foydalanish va to'lovlarni onlayn amalga oshirish
20	24/7 texnik yordam va markazlashtirilgan aloqa markazi
21	Onlayn maslahatchi xizmati

Manba: Muallif tomonidan shakllantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining banklararo to'lov tizimi orqali, amalga oshirilgan tranzaksiyalar miqdori yiliga 1 890 510 mlrd. so'mni tashkil qilishini, bir yil ish kunini 256 kun deb olsak, Markaziy bankning o'rtacha kunlik aylanmasi miqdori (9-00 dan 16-00 gacha) o'rtacha 7,4 trln. so'mni tashkil qiladi <sup>[13]</sup> (bunda bank ichidagi to'lovlar inobatga olinmagan). Tijorat banklarining kunlik pul o'tkazmalarini kamida 5 foizini "Digital bank" raqamli banking tizimi orqali, amalga oshirilgan taqdirda, quyidagi moliyaviy ko'rsatkichlarga erishishimiz mumkin: "Digital bank" raqamli banking tizimi orqali kunlik tranzaksiyalarni 0,2 foiz miqdorida jalb qilishni boshlab 20 oy davomida kamida 5 foizga yetkazganimizda va komission xizmatlarini 0,2 foiz miqdorida belgilangan taqdirda birinchi, ikkinchi va uchinchi oylarda 30 mln. so'mga yaqin daromad ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin. Ushbu ko'rsatkichlarimiz yuqoridagi jadvalga asosan 5 foizga yetkazilganda esa 16-20 oylarda daromadni 740 mln. so'mgacha ko'tarish imkonini beradi (2-jadval).

2-jadval: "Digital bank" raqamli banking regulyator tizimi orqali foiz ko'rinishida kutilayotgan daromad

Oylar kesimida	Kunlik tranzaksiyalar miqdori (mln. so'm)	Kunlik tranzaksiyalardagi ulushi (% da)	Kunlik daromad (% da)	Kutilayotgan kunlik daromad (mln.so'm)
1-3	7 400 000	0,2	0,2	29,6
4-8	7 400 000	0,5	0,2	74
9-15	7 400 000	1,5	0,2	222
16-20	7 400 000	5,0	0,2	740

Manba: O'zbekiston Respublikasining Markaziy bankining rasmiy sayt ma'lumotlari orqali muallif tomonidan shakllantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yil holatiga masofaviy bank xizmat turlaridan foydalanuvchilar soni 15 088 354 tashkil qiladi. Shundan xo'jalik subyektlar 838 817 tani, jismoniy shaxslar 14 249 537 tani tashkil qiladi <sup>[13]</sup>. Ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi xo'jalik subyektlar soni jismoniy shaxslar sonidan bir necha barobar kam ekanligi va ushbu xizmat turlarini yuridik shaxslar uchun mamlakatimizda yetarli darajada rivojlanmaganligini ko'rishimiz mumkin.

3-jadval: "Digital bank" raqamli banking regulyator tizimi orqali obonent to'lovidan kutilayotgan daromad

Oylar kesimida	Xo'jalik subyektlar soni	Xo'jalik subyektning jalb qilinishi (% da)	Oylik obonent to'lovi so'm)	Kutilayotgan oylik daromad (mln. so'm)
1-3	838 817	1% (8 388 dona)	98 000	822
4-8	838 817	5% (41 940 dona)	98 000	4 110
9-15	838 817	10% (83 881 dona)	98 000	8 220
16-20	838 817	20% (167 763 dona)	98 000	16 440

Manba: O'zbekiston Respublikasining Markaziy bankining rasmiy sayt ma'lumotlari orqali muallif tomonidan shakllantirildi.

Markaziy banki ma'lumotlariga asosan, masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi xo'jalik subyektlar soni 838 817 tani tashkil qilsa <sup>[13]</sup>, har bir ulangan xo'jalik subyektdan obonent to'lovi eng kam bazoviy hisoblash miqdorining 40 foizi miqdorida 98 000 so'm to'lov olinishini hisobga olsak. Xo'jalik subyektlarning soni "Digital bank" raqamli banking tizimiga jalb qilishni 1 foizini tashkil qilganda obonent to'lovi 98 ming so'mdan hisob-



lansa birinchi-uchinchi oylardagi daromad 822 mln.so'mni tashkil qiladi. Jalb qilish 20 foizga yetkazilganda esa daromad 16 440 mln. so'mga yetkazilishi mumkin (3-jadval).

**4-jadval: "Agro bank" ATB tomonidan "Digital bank" raqamli banking regulyator tizimi orqali ko'rsatilayotgan xizmatlaridan kutilayotgan daromad**

Oylar kesimida	Xo'jalik subyektlar soni	Xo'jalik subyektning jalb qilinishi	Oylik obonent to'lovi (so'm)	Kutilayotgan oylik daromad (mln. so'm)	Sof daromad 50% (USD)
1-3	120 000	20% (24 000 dona)	98 000	2352	112 000
4-6	120 000	35% (42 000 dona)	98 000	4 116	196 000
7-9	120 000	50% (60 000 dona)	98 000	5 880	280 000
9-12	120 000	75% (90 000 dona)	98 000	8 820	420 000

Manba: ATB "Agro bank" rasmiy sayt ma'lumotlari orqali muallif tomonidan shakllantirildi.

ATB "Agrobank" tomonidan "Digital bank" raqamli banking regulyator tizimi orqali, ko'rsatilayotgan xizmatlaridan kutilayotgan daromad ko'rsatkichlarini tahlil qiladigan bo'lsak, bank ma'lumotlariga ko'ra 2022 yil 1-fevral holatiga masofaviy bank xizmat turlaridan foydalanuvchilar soni 3 369 537 tani tashkil qiladi. Shundan xo'jalik subyektlar soni 120 000 tani, jismoniy shaxslar soni 3 249 537 tani tashkil qiladi. Agrobank tomonidan "Digital bank" raqamli banking regulyator tizimiga jalb qilingan mijozlar 20 foizni tashkil qilganda daromadning 50 foizi – 112 000 AQSh. dollarini tashkil qilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Mijozlar sonini 50 foizni tashkil qilganda, oylik daromad 5 880 mln.so'mni hamda, mijozlar sonini 75 foizga yetkazilganda kutilayotgan daromad 420 000 AQSh. dollarini tashkil qiladi (4 - jadval)

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Fikrimizcha, "Digital bank" raqamli banking regulyator tizimi masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatishda axborot havfsizligini ta'minlash va bu borada xalqaro tajribalarni o'rganish orqali axborot xavfsizligini ta'minlashning yangi innovatsion shakllarini qo'llash lozim deb hisoblaymiz.

Xulosa qilib aytganda, "Digital bank" raqamli banking regulyator tizimini joriy qilish va rivojlantirish orqali, tadbirkorlik subyektlari faoliyatidagi ortiqcha qog'ozbozlik, navbatlarda turib, ortiqcha vaqt sarflash va bank xizmat ko'rsatish sohasidagi korrupsiyaga barxam berishga olib keladi hamda buning natijasida ularning faoliyatlarini yanada yaxshilashga erishishimiz mumkin deb hisoblaymiz.

### Adabiyotlar/Literatura/Reference:

1. Ayupov R.H., Boltaboyeva G.R. "Raqamli iqtisodiyot asoslari". Darslik. –T.: TMI, 2020. – 11 b.
2. "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni. Toshkent 2018-y.
3. "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori. Toshkent 2018-y.
4. "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3620 Qarori., Toshkent 2018-y.
5. "Milliy to'lov tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3945 qarori. –Toshkent 2018-yil.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so'zi 2020-yil 30-dekabr № 276 (7778). 1-4-b.
7. Ablyazov T., Asaul V. On competitive potential of organization under conditions of new industrial base formation // SHS Web of Conferences. 2018. –Vol. 44. 00003.
8. Кошечев В.А., Цветков Ю.А. Цифровая трансформация банковского сектора. <https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovaya-transformatsiya-bankovskogo-sektora>.
9. <https://review.uz/oz/post/raqamli-iqtisodiyot-mamlakatimiz-taraqqiyoti-garovidir>.
10. Gulyamov S.S., va boshq. "Raqamli iqtisodiyotda blokchaey texnologiyalari".O'quv qo'llanma 21-22-betlar.–TMI 2019 yil -447 bet.
11. Alimov R.X. Axborot tizimlari va texnologiyalari: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. –T.: Sharq, 2000. – 592 b.
12. Dadabayeva R.A. Menedjment informatsionnyhsistem.Uchebnoe posobie. –T.:Iqtisodiyot, 2016. – 402 s.
13. Manba: <http://www.cbu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb-sayti ma'lumotlari.
14. Manba: <https://agrobank.uz/> – rasmiy veb-sayt ma'lumotlari.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 11-12**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.